| Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini xorijiy tajribalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish .....                                      | 566 |
| <b>Sotimova Barno Marufjonovna</b>  |     |
| Tasviriy san'at fanini o'qitishda milliy san'at elementlaridan foydalanishning ayrim metodlari .....  | 570 |
| <b>Abdullayev Sayfulla Fayzullayevich, Abdullayev Suxrob Sayfullayevich, Zikrillayeva Visola Hamrayevna</b>   |     |
| Метод, основанный на построении симметрии при делении угла с недоступной вершиной .....   | 576 |
| <b>Эсонов Мунавваржон Муқимжонович</b>  |     |
| Innovatsion yondashuv asosida talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....   | 579 |
| <b>Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich</b>  |     |
| Internet tizimida muloqotning gendorologik tipologiyasi .....   | 584 |
| <b>Raxmonova Barno Odilovna</b>   |     |
| Bolalarga xos nutq muhitida etiketning ahamiyati .....  | 587 |
| <b>Temirova Nargiza Davlat qizi</b>   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish.....                 | 590 |
| <b>Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li</b>   |     |
| Hozirgi kun pedagogi.....   | 594 |
| <b>Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi</b>  |     |
| "Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati .....   | 598 |
| <b>Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi</b>   |     |
| Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari .....  | 602 |
| <b>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</b>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati. ....   | 607 |
| <b>Mannonova Barno</b>  |     |
| Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art .....  | 611 |
| <b>Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi</b>   |     |
| 3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....                                   | 615 |
| <b>Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</b>  |     |
| Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....   | 618 |
| <b>Soatov E. M.</b>   |     |
| Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati .....  | 623 |
| <b>Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna</b>   |     |
| Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....  | 626 |
| <b>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</b>   |     |
| O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....   | 631 |
| <b>Mapruza Embergenova</b>  |     |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati .....                             | 636 |
| <b>Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi</b>   |     |
| Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari .....  | 641 |
| <b>Narzikulov Javohir Ikromovich</b>  |     |
| Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....                                  | 645 |
| <b>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</b>   |     |



|  |     |
|--|-----|
| Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....                                    | 652 |
| <i>Ochilova Mohinur</i>  |     |
| Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....   | 656 |
| <i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>   |     |
| Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....   | 660 |
| <i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>   |     |
| Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....  | 664 |
| <i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>  |     |
| Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....   | 669 |
| <i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>  |     |
| Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....  | 673 |
| <i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>   |     |
| Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....   | 678 |
| <i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>  |     |
| Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....   | 681 |
| <i>I. B. Bobomuratov</i>   |     |
| The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....  | 685 |
| <i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>  |     |
| Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....  | 689 |
| <i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>   |     |
| Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....   | 692 |
| <i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>   |     |
| Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....                                | 695 |
| <i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>  |     |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..                                  | 699 |
| <i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>   |     |
| Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....   | 702 |
| <i>N. T. Tojiboyeva</i>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....  | 707 |
| <i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>   |     |
| Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....              | 710 |
| <i>Olimov Temir Xasanovich</i>   |     |
| Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....          | 715 |
| <i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>   |     |
| O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...                                   | 720 |
| <i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>   |     |
| Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....                        | 724 |
| <i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>   |     |
| Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar ..... | 728 |
| <i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>  |     |
| Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....   | 733 |
| <i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>  |     |
| Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....  | 737 |
| <i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>  |     |
| Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....                                   | 742 |
| <i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>  |     |



|  |     |
|--|-----|
| Формирование профессиональных компетенций будущих художников<br>через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции..... | 745 |
| <a href="#">Д. Б. Бабаева</a>  |     |
| Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....   | 750 |
| <a href="#">Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</a>   |     |

# TA'LIM METODLARI VA USULLARINI MODERNIZATSIYA QILISH ASOSIDA ILMIY TADQIQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Olimov Temir Xasanovich

Osiyo xalqaro universiteti professori,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida o'quvchilarda ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim paradigmalari, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim metodlarini yangilash zarurati asoslab berilgan. Maqolada ta'lim metodlari va usullarining an'anaviy shakllaridan zamonaviy, interfaol va tadqiqotga yo'naltirilgan metodlarga transformatsiyasi ilmiy tadqiqot madaniyatini shakllantirishning muhim omili sifatida yoritilgan. Xususan, muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, hamkorlikda o'qitish va refleksiv yondashuvlar orqali o'quvchilarda ilmiy tafakkur, mustaqil izlanish, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim metodlari, ta'lim usullari, metodlarni modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqot madaniyati, pedagogik tizim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, refleksiv yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil fikrlash, tahliliy fikrlash.

**Abstract:** This article provides a theoretical and practical analysis of a pedagogical system for developing students' research culture based on the modernization of teaching methods and techniques. The study substantiates the need to update teaching methods in accordance with modern educational paradigms, particularly the competency-based approach, learner-centered education, and innovative pedagogical technologies. The paper demonstrates that the transformation of traditional teaching methods and techniques into modern, interactive, and research-oriented approaches is a key factor in fostering research culture. In particular, it highlights the opportunities to develop scientific thinking, independent inquiry, analytical and critical thinking skills through problem-based learning, the project method, case studies, collaborative learning, and reflective approaches.

**Key words:** teaching methods, teaching techniques, modernization of methods, research culture, pedagogical system, innovative pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning, project method, case study, reflective approach, competency-based approach, independent thinking, analytical thinking.

**Аннотация:** В данной статье теоретически и практически проанализирована педагогическая система развития исследовательской культуры учащихся на основе модернизации методов и приёмов обучения. В исследовании обоснована необходимость обновления методов обучения на основе современных образовательных парадигм, в частности компетентного подхода, личностно-ориентированного обучения и инновационных педагогических технологий. В статье показано, что трансформация традиционных форм методов и приёмов обучения в современные, интерактивные и исследовательски ориентированные методы является важным фактором формирования исследовательской культуры. В частности, раскрыты возможности развития научного мышления, самостоятельного поиска, аналитического и критического мышления учащихся посредством проблемного обучения, метода проектов, кейс-стади, обучения в сотрудничестве и рефлексивного подхода.

**Ключевые слова:** методы обучения, приёмы обучения, модернизация методов, исследовательская культура, педагогическая система, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, проблемное обучение, метод проектов, кейс-стади, рефлексивный подход, компетентный подход, самостоятельное мышление, аналитическое мышление.



## KIRISH

Ta'lim metodlari to'g'risida umumiy tushuncha. Metod – grekcha “methodos” – biron-bir narsani bilish yo'li degani. Metod, umuman olganda, ma'lum maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan faoliyat usullari yig'indisidir. O'qitish metodlari muammosi didaktikadagi eng asosiy, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalaning to'g'ri hal etilishi orqali o'qitishning barcha sohalari samaradorligi ta'min etiladi. Yosh, endi ish boshlayotgan o'qituvchi o'quvchilarni bilmaslikdan bilishga tomon yetaklash borasida katta qiyinchiliklarga uchraydi. Qanday yo'l, usul yoki vosita bolalarning chuqur, mustaqil, keng qamrovli bilim olishini ta'minlaydi, ijodiy fikrlash sari yetaklay oladi, mustaqil bilish faoliyatini yo'lga qo'ya oladi? Bu masalani o'qitish metodlari hal etadi. Ta'lim turlari va shakllarining tavsifi. Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib, davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi.

Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. Ta'lim turlari (yunoncha “species” – alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan avvalgi VII-VI asrlar);
- yunon (ellin, rim-yunon, rim – eramizdan avvalgi V-I asrlar); o'rta asr (dogmatik, sxolastik – V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofaviy o'qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan, innovatsion);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o'qitish, masofaviy, Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Avesto” g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. “Avesto” zardushtiylikning muqaddas manbai bo'lib, u o'z davrining ensiklopediyasi hisoblangan. “Avesto” g'oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

- 1) diniy va ma'naviy tarbiyalash;
- 2) jismoniy tarbiya;
- 3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona yerga, atrof-muhitga, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan.

“Avesto”da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan. Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399-yillar) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llangan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savollardan foydalanadi, mulo-haza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulo-hazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dogmatik o'qitish – jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. “Haqiqiy g'oyalar” (Abu Ali ibn Sino, “Donishnoma” (“Bilimlar kitobi”))ga ko'ra, haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarning aniq emasligi va fikrlarning tushunarli emasligi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etishda logika alohida o'rin egallaydi. Bundan tashqari, XI-XII asrlarda bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Asosiy ta'limni bolalar maktablarda – boshlang'ich ta'lim bosqichida olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar).

Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnни so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan. Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrda eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarning rivojlanishi XI-XII asrlarga to'g'ri kelgan. Madrasalarda o'qitish fors tilida olib borilgan, talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib borgan. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan, ammo har bir badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi. Ayni vaqtda respublika hududida faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda: tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim ham deb ataladi), muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan ta'lim yoki kompyuterli o'qitish. Bugungi kunda o'rta asrlarda keng qo'llanilgan ta'lim turlari – dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtini tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchiliklarga ham ega, ya'ni "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan cheklash, o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish imkoniyatlarining kamligi bilan tavsiflanadi.

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turadi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi va ular ketma-ket hamda kompleks amalga oshirilishi zarur. Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi, bunda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi yetadigan bo'lishi kerak.

Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Keyingi bosqichda o'quvchilar muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, mavjud bilimlar yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratiladi va u kutilmagan fikr (insayt) bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). Shundan so'ng muammoni hal etish, natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilim va malakalarni tizimlashtirish hamda umumlashtirish bosqichlari amalga oshiriladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari va amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savolda izlanish va javoblarning turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni oldindan tayyor javob mavjud bo'lmaydi. Muammoli savolga misol: "Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho'kadi, temirdan yasalgan kema esa cho'kmaydi?".

Muammoli masala uni yechish yo'llarini mustaqil izlashga undovchi o'quv topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi.

O'qish jarayonida muammoli vaziyat subyekt (o'quvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani yechishni istashi, biroq unga ma'lumotlar yetishmasligi va ularni mustaqil izlash zarurligini anglashini nazarda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: "6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchak yasang".

Muammoli o'qitishning afzalliklari – shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egalash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldor fikrlashni rivojlantirish hamda mustahkam amaliy natijalarga erishishdir. Kamchiliklari esa o'quvchilar idrok etish faoliyatini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt talab etilishi, shuningdek, har bir o'quvchi uchun muammoli vaziyatni yaratish va uni mustaqil yechish imkoniyatini ta'minlash murakkabligi bilan belgilanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondashuv tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarning oldini olish, qiziqishni yo'qotmaslik hamda salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiluvchi o'quv jarayoni texnologiyasini yaratishga yo'naltirilgan.



Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha alohida "portsiyalar" va fikrlash amallaridan iborat ketma-ket qadamlardan tashkil topishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va boshqalar);
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajarganda o'quvchining yangi materialni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to'g'ri javob topa olmaganida o'quvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o'quvchining mustaqil ishlashi va kuchi yetadigan mavzu bo'yicha o'quv materialini egallashi;
- barcha nazorat topshiriqlari natijalarining qayd etilishi (ular o'quvchilarning o'zlariga – ichki qayta aloqa va pedagogga – tashqi qayta aloqa sifatida ma'lum qilinadi);
- o'qituvchining ta'lim tashkilotchisi va zarur hollarda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi hamda individual yondashuvning amalga oshirilishi;
- ta'lim jarayonida maxsus o'qitish vositalarining keng qo'llanilishi (dasturlashtirilgan o'quv qo'llanmalar, trenajyorlar, nazorat qurilmalari, o'qitish mashinalari).

Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy sinf-dars shakli Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'qituvchi o'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilgan holda har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning muhim ustunligi hisoblanadi. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shaklidir. Darsda har bir o'quvchining xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallashi, ularning idrok etish qobiliyatlari va axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega: o'quvchilarning doimiy guruhi mavjudligi, ularning faoliyatiga individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallash. Darsning tuzilishi oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin, bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi hamda sinf jamoasining xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- aralash darslar;
- yangi bilimlarni o'rganish darslari;
- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari;
- umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari;
- bilimlarni tekshirish darslari;
- bitta asosiy didaktik maqsadga ega dars turlari.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olib, o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalaniladi, yangi bilimlar berish avval o'rganilganlarni mustahkamlash va takrorlash bilan uyg'un holda olib boriladi. Hatto tekshirish darslari ham ko'pincha boshqa faoliyat turlarini o'z ichiga oladi: og'zaki bayon, qiziqarli hikoyalarni o'qish va boshqalar. Shu sababli bu turdagi darslar aralash yoki kombinatsiyalashgan darslar deb ataladi.

Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi quyidagicha: uy vazifasini tekshirish va savol-javob, yangi materialni o'rganish, dastlabki mustahkamlash, ilgari o'rganilganlarni takrorlash, bilimlarni tekshirish va baholash, uyga vazifa berish. Yangi bilimlarni o'rganish darslari o'quvchilar uchun yangi bo'lgan, keng hajmdagi materialni o'z ichiga oladi va uni o'zlashtirish ko'proq vaqt talab etadi. Bunday darslarda o'qituvchi materialni mustaqil bayon qilishi yoki o'quvchilar faoliyatini boshqarishi mumkin, ba'zan esa har ikkala usul uyg'unlashtiriladi. Bilimlarni mustahkamlash darslarida asosiy e'tibor ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish va takrorlashga qaratiladi.

O'quvchilar bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llaydi, masalalar yechadi, og'zaki va yozma mashqlar bajaradi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari bir necha bosqichda amalga oshiriladi va ular boshqa darslar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'quvchilar dastlab o'qituvchi yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bilim va ko'nikmalarni qo'llashni o'rganadilar. Umumlashtiruvchi darslar ilgari o'tilgan materialni tizimlashtirish, asosiy g'oyalarni ajratish va bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi. Bunday darslar odatda mavzu yoki kurs yakunida o'tkaziladi. Tekshirish (nazorat) darslari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, kamchiliklarni topish hamda keyingi o'quv jarayonini rejalashtirish uchun xizmat qiladi. Ular og'zaki va yozma shakllarda amalga oshiriladi.

## XULOSA

Yuqorida bayon etilgan barcha dars turlarining majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqichlardan iborat. Tashkiliy bosqichda maqsadlar belgilanadi, o'quvchilar faoliyatga jalb etiladi, ish sharoiti yaratiladi va o'quv faoliyati motivlari faollashtiriladi. Yakuniy bosqichda esa erishilgan natijalar tahlil qilinadi, o'quvchilarning ishtiroki baholanadi va keyingi vazifalar belgilanadi. Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisa bo'lib, u pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi hamda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni samarali hal etishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and Moral Aspects of the Formation of Civil Culture in Future Specialists of Higher Education. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662–665.
2. Olimov, T. H. (2020). The Image of a Modern Teacher in the Formation of Civic Culture among Future Highly Educated Specialists. *Pedagogical Skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development Issues of Civil Society and Culture in the Work of Eastern Thinkers. *Pedagogical Skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of Self-Awareness in Youth. *Social and Humanitarian Sciences in the Educational System*. – Tashkent, 4.
5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi*, 1(1), 20–27.
6. Olimov, T. The Role of National Spirituality and Values in the Development of Civil Culture in Future Specialists with Higher Education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.